

## **Boshlang'ich sinf o'qish darslarida innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish muammolari**

***TerDU. k.o'q. Muxtorova L.A.***

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Globallashuv - insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rinn olishi, birinchi navbatda davlatning intellektual salohiyati, yosh avlod ta'lif-tarbiyasi va umuman zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqdir.

Respublikamiz ta'lif tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o'z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi chuqur bilimlar talab etuvchi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitlarida mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallah, kasbiy mahorat cho'qqilarini egallahga qodir va kasbiy moslashuvchanlik hislatlariga ega bo'lgan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash orqali ta'lif-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonini ilm-fanning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tashkil etishni, zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqoralik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimiz ekan, zero jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'larning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatning barpo etilishiga hizmat qilish asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjuddir.

Shunigdek, "Barkamol avlod yili" davlat dasturida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarda "... ta'lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarni keng joriy etish va Oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifati tubdan yahshilash ... samarali tizimni yanada rivojlantrish ko'zda tutilgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd qilindi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhum vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish ko`nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko`ra o'qish darslari orqali o'quvchilar to`g`ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o`rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko`nikmasiga ega bo`la boradilar va ularda kitobga muhabbattuyg`usi uyg`otiladi. Mazkur jarayonning sifatli va samarali amalga oshirilishi bevosita o'qish darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bog'liqdir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o'rGANISH, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

SHu sababli boshlang'ich sinf o'qish darslarida innovatsion ta'limgan texnologiyalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda pedagogik mahoratini shakllantirish, ta'limgan samaradorligini oshirish, modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash muammolarini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'limgan texnologiyalari – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'limgan shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limgan takomillashtirishda innovatsion ta'limgan texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Boshlang`ich sinflarning «O'qish kitobi» darsligida berilgan materiallar orqali o`quvchilarda DTS talablariga muvofiq bilim va ko`nikmalar hosil qilish bolalarni komil inson ruhida tarbiyalash ona vatan va o`zbek xalqiga muhabbat tuyg`usini o`stirish; o`quv mashg`ulotlarida dastur talab qilgan ilmni o`quvchilarga yetkazish; ularda o'qish va nutq ko`nikmalarini takomillashtirish; berilgan badiiy asar obrazlarda tasavvur qila olish ko`zda tutiladi.

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang`ich ta'limgan tizimida alohida o'rinni tutadi. Barcha predmet darslarini o'qish faoliyatiziz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matnni tushunib, bir maromda, to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish bilan o'qish darslari shug'ullanadi. O'qish darslari orqali o`quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlami hamda o`quv - biluv ko'nikma va malakalami egallashlariga yoi ochiladi.

O`quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarni to`g`ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi. O`quvchilarni milliy istiqlol g`oyasi ruhida, o`z vataniga, xalqiga muhabbat, butun dunyo mehnatkashlariga nisbatan do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash maqsadida vatan va uning istiqloli hamda ilg`or kishilari, buyuk ajdodlari haqidagi badiy adabiyot namunalari o`qitiladi.

Boshlang`ich sinf, xususan, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lish jamoada o`z ma`suliyatini anglash, hislatlari tarkib topdirila boriladi. 4-sinfda esa o`quvchilarning o`qishga oid ko`nikma va malakalari yanada takomillashtiriladi. Ya`ni o`qish materiallarini tushunish va matn ustida ishslashga e`tibor kuchaytiriladi. O`qish darslarida badiiy asarni muntazam mutolaa qilib borish istagini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu juda murakkab bo`lib, agar u amalga oshirilmasa o`quvchida o`qish ko`nikmasi va malakasi kam foydali bo`ladi. O`quvchilarda badiiy asarni mustaqil mutolaa qilishni shakllantirish badiiy asarlarga jozibali tomonlarni ko`ra olish, tushunish va his etishga bog`liqdir. Bu o`quvchi bilim va tajribasini kengligi badiiy mushohada qobiliyatlarini rivojlanishini talab etadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog'lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. CHunki mustaqil fikrlovchi o`quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo`lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg'or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar.

SHu o'rinda Z.Nishonovaning «Mustaqil fikrlashga o'rgatish» nomli maqolasidagi quyidagi fikrlarni keltirib o'tish o'rinnlidir: «Hozirgi davr o'qitish tizimi ham ko'proq xotirani rivojlantirishga qaratilgan. Biroq ayrim o'qituvchilarda bugun bir mavzuni tushuntirib, tayyor holda o`quvchilarga yetkazib berib, ertasiga shu mavzuning mazmunini so'rashi yoki she'rni yod olishga berish hollari ko'proq uchraydi. Bunday darsda hech qanday muammoli vaziyat yaratilmaydi va buning natijasida o`quvchilarning o`qish darslarida mavzu materialini tushunish, uni erkin va mustaqil fikrlashiga imkon berilmaydi. O'qituvchilarning o'zлari o`quvchilarning mustaqil fikr yurita olmasligini bilishadi. Lekin qanday qilib o`qish darslarida o`quvchida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish mumkin? - deb berilgan savolga javob berishga qiynaladilar».<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish// «Mehnat ta'limi mehnat o'qituvchisi» jurnali. 1999.№3.

O'quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. SHuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy etishga tayyorlash ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. CHunki innovatsion ta'lim texnologiyalari birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Innovatsion ta'limning rivojlanishidagi asosiy sabablardan biri ta'lim sohasida yuzaga kelgan inqirozdir. Turli davlatlarda uning xilma-xil shakllarda namoyon bulishida quyidagi umumiylilik mavjud:

- 1) ijtimoiy amaliyotning rivojlanayotgan extiyojlari bilan oliv ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bitiruvchilarning real tayyorgarligi orasida tafovutlar;
- 2) boshlsng'ich ta'lim oldiga yangi maqsadlarning qo'yilishi va boshqarishning tashkiliy tuzilishi va shakllarining murakkablashuvi;
- 3) ta'lim jarayoni sub'ektlarining qiziqishlari va imkoniyatlari.<sup>2</sup>

Demak, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni echishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy –texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi.

---

<sup>2</sup> B.Xodjaev, SH.Zufarov. Pedagogik iinovatika. -T.: «Fan va texnologiya», 2010 yil.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur<sup>3</sup>.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o'rgatish// «Mehnat ta'limi mehnat o'qituvchisi» jurnali. 1999 yil. №3.
2. B.Xodjaev, SH.Zufarov. Pedagogik iinovatika. -T.: «Fan va texnologiya», 2010 yil.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005 yil.

---

<sup>3</sup> Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005 yil.